

AMIR TEMUR DAVRI MA'NAVIYATI

Haqliev V.B.

*O'zbekiston Respublikasi IIV 2-son Toshkent Akademik litsey
o'qituvchisi, t.f.n., dotsent*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbek xalqining ma'naviy merosi tarixida Amir Temurning alohida o'rni haqida bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *Mustaqillik, Amir Temur, Amir Temur tuzuklari, buyuk sarkarda, yirik davlat arbobi, inson, tarix, markazlashgan davlat, Bolqon yarim oroli va Yevropa xalqlari, Oltin O'rda, To'xtamish, "Evropaning xaloskori".*

O'zbek xalqining ma'naviy merosi tarixida Amir Temurning alohida o'rni bor. Totalitar tuzum sharoitida Amir Temur shaxsiyatining asl mohiyatiga xolis va haqqoniy baho berish imkoniyatidan mahrum bo'lib yashadik, sohibqiron haqidagi haqiqat xalqdan yashirib kelindi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev 2018 yil 28 dekabrda parlamentga yo'llagan Murojaatnomasida «Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak» deb ta'kidlagandi.

Amir Temur – buyuk sarkarda, yirik davlat arbobi, shu bilan birga, el-yurtini, xalqini sevgan va uni mashhuri jahon qilgan inson.

Amir Temurning tarix oldidagi xizmatlari benihoyat katta.

Birinchidan Amir Temur mamlakatda kuchayib ketgan tarqoqlikka barham berib, el-yurtni o'z tug'i ostiga birlashtira oldi, markazlashgan yirik davlatni yaratdi.

Ikkinchidan, Amir Temur bir qator xalqlar va yurtlarni mustamlakachilar zulmidan ozod bo'lishiga yordam berdi. Masalan, o'sha davrning eng qudratli hukmdorlaridan hisoblangan Boyazid Yildirimni tor-mor keltirib, Bolqon yarim oroli va Yevropa xalqlariga ozodlik bag'ishladi. Oltin O'rda xoni To'xtamishni ikki marta tor-mor etib, Rossiyani mo'g'ullar hukmronligidan qutilishini qariyb 300 yilga tezlashtirdi. Shuning uchun Yevropada XV asrdayoq Amir Temurga yodgorlik o'rnatilib, unga "Evropaning xaloskoriga" degan chuqur ramziy ma'noli so'zlar yozib qo'yilgan.

Sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari ham beqiyosdir. Amir Temur va uning avlodlari sa'y-harakatlari bilan qurilgan madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, saroylar, bozorlar, qal'alar, kanallar va boshqa inshootlarning son-sanog'i yo'q. Amir Temurning bevosita

rahnamoligida bunyod etilgan Bibixonim jome masjidi, Go'ri Amir, Ahmad Yassaviy, Zangi Ota maqbaralari, Oqsaroy va Shohi Zinda me'moriy mo'jizalari, Bog'i Chinor, Bog'i Dilkusho, Bog'i Behisht, Bog'i Baland singari o'nlab go'zal saroy-bog'lar va shu kabi boshqa inshootlar shular jumlasiga kiradi.

Amir Temur markaziy davlat tizimini ixcham va ishchan qilib tuzdi va bunda songa emas, sifatga e'tibor berdi. Davlat ishiga imonli, diyonatli kishilarni o'tqazdi.

Temur bobomiz kishi "saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qilish lozim" deb aytgan ekanlar:

- kengash
- maslahatu mashvarat
- qat'iy qaror
- tadbirkorlik, hushyorlik va ehtiyotkorlik.

Kengash – bu yaqin ishonchli odamlar bilan muhim davlat ishlari yuzasida qilinadigan maslahat, yig'ilish.

Mashvarat – mashoyix, ulamo, fuzalo va boshqa arkoni davlatni to'plab qilinadigan yig'ilish.

"Davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim". Bu to'rt omil, ya'ni - kengash, maslahatu mashvarat, qat'iyat va tadbirkorlik keyinchalik oqibatda nadomat chekishdan saqlaydi va pushaymon bo'lishning oldini oladi, deb uqtiradi sohibqiron bobomiz.

Sohibqiron Amir Temur o'z Tuzuklarida: "Tajribamda ko'rilgankim, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir. Chunki tajribali bir kishi ming kishiga ish buyuradi", deb yozgan edi.

Amir Temur o'z davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etganini uning quyidagi fikridan ham bilsa bo'ladi "Dunyoning yarmini oldim, saltanatimning u chetidan bu chetiga biror bolakay boshida bir lagan tilla ko'tarib o'tadigan bo'lsa, bir donasiga ham zarar yetmaydigan tartib-intizom o'rnatdim".

Amir Temurning «Temur tuzuklari», Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiylarning «Zafarnoma»lari, Ibn Arabshohning «Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari» va boshqa asarlarda keltirilgan sohibqironning ibratli ishlari, pand-nasihatlari va o'gitlaridan ham uning kimligini bilib olsa bo'ladi. Bular el-yurtning tashvishi, xalqparvarlik, mehr-muruvvat, yaxshi qo'shnichilikka rioya qilish va nihoyat, mardlik va qahramonlik haqidagi o'gitlardir.

Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning guvohlik berishicha, Amir Temur «Obodonlikka yaraydigan biror qarich yerning ham zoe bo'lishini ravo ko'rmasdi».

Tarix bu ko'hna dunyoda juda ko'p jahongirlarni ko'rgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr bo'yi bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lgan. Uning «qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim», degan so'zlari bunyodkorlik, yaratuvchanlik faoliyatining tasdig'idir.

«Agar bizning qudratimizni bilmoqchi bo'lsangiz, qurgan binolarimizga boqing» deganda Amir Temur, avvalo, o'z xalqiga, kelajak avlodlariga murojaat qilgan, desak yanglishmaymiz.

Har qanday jamiyat taraqqiyotini ilm-ma'rifatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buni teran anglagan sohibqiron hokimiyatga kelishi bilan chiqargan dastlabki farmonlarini madrasalar barpo etishga, ilm toliblariga nafaqalar tayinlash bilan boshlagan. Qaysi bir shaharga tashrif buyurmasin, Amir Temur, avvalo, o'sha yerlik olimu fozillar bilan uchrashar, ular bilan suhbat qurar, turli mavzularda bahslashar edi.

Amir Temurning ma'naviy va ma'rifiy qarashlari uning o'z farzandlari, nabiralari, taxt vorislariga qoldirgan o'g'itlari «Temur tuzuklari»da mujassamlashgan.

«Temur tuzuklari» – Amir Temur tomonidan XIV–XV asrlarda o'zbek tilida yozilgan. Asar Boburiylar davrida Hindistonga olib ketilgan. Boburiylar bu asarni forsiyga o'girishgan. Asar 1783 yilda ingliz, keyin boshqa tillarda nashr etilgan. O'zbek tiliga birinchi marta forschadan 1967 yilda Alixonto'ra Sog'uniy (1885–1976) tarjima qilgan va asardan parchalar “Guliston” jurnalida e'lon qilingan.

«Temur tuzuklari»da 1342–1405 yillar orasida Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy ahvoli, qo'shni mamlakatlar va xalqlar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlar haqida hikoya qilinadi.

Asar 2 qismdan iborat:

1. Birinchi qismda Amir Temurning 7 yoshi (1343) dan to vafotiga (1405 yil 18 fevral) qadar kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati ixcham tarzda bayon etilgan.

2. Ikkinchi qism Amir Temurning toju taxt vorislariga atalgan o'ziga xos vasiyat va pand-nasihatlaridan iborat.

Amir Temur davlatni boshqarishda o'zidan avval o'tgan hukmdorlardan farq qilib, davlat boshqarishda 1 yoki 2 tabaqaga emas, balki aholining barcha tabaqalariga suyandi. «Temur tuzuklari» da aytilishicha davlat asosini 12 ijtimoiy toifa tashkil qiladi:

- 1) sayyidlar (payg'ambarlar avlodi), ulamo mashoyix, fozil kishilar;
- 2) ishbilarmon, donishmand kishilar;
- 3) xudojo'y, darvesh, qalandarlar;
- 4) nuyonlar, amirlar, ya'ni harbiy kishilar, mingboshilar;
- 5) sipoh va raiyat;
- 6) maxsus ishonchli kishilar;
- 7) vazirlar va sarkotiblar;
- 8) hakimlar va tabiblar, munajjimlar va muhandislar;
- 9) tafsir va hadis olimlari;
- 10) ahli hunar va san'atchilar, hunarmand;
- 11) sufiylar;
- 12) tujjor (savdogar) va sayyohlar.

Amir Temur el-yurtni o'z tasarrufiga va itoatda tutish uchun 12 tuzuk tutdi:

- 1) Podshohlar bir so'zlik bo'lishi va aytgan so'ziga amal qilishi, belgilangan har bir ishini bilib qilishi lozim;
- 2) har bir ishda adolatpesha bo'lishi, atrofida ham shunday kishilarni tutishi zarur;
- 3) ne ishnik i qilar bo'lsa, o'zi hukm chiqarsin;
- 4) biror ishga azmu qaror qilar ekan, qarorida qattiq tursin;
- 5) uning farmoni hamma uchun vojib bo'lsin;
- 6) podshohlik ishlarini biron boshqa kimsaga ishonib berib qo'ymasini;
- 7) ne ish qilmoqchi bo'lsa, boshqalar bilan kengashsin, lekin maslahatning foydasini olsin;
- 8) saltanat, raiyat va sipoh ishlarida yaxshi-yomon gaplar eshitsa, haqiqat qilib shoshmasdan mulohaza bilan hukm chiqarsin;
- 9) sipoh va raiyat oldida o'zini haybatli va jiddiy tutsinki, hech kim bo'yin tovlash va gap qaytarishga jur'at etolmasin;
- 10) raiyat xazina, lashkar va saltanat podshohning hukmi ostidadir, u buni doimo esda tutmog'i lozim;
- 11) saltanatni idora qilishda boshqani o'ziga sherik qilmaslik kerak;
- 12) ahli kengashdan ogoh va hushyor bo'lmog'i lozim, chunki ko'pincha ayb axtaradilar va uni tashqariga tashiydilar;

«Temur tuzuklari» da axloq va odobga oid nasihatlar ham berilgan. Amir Temur hech kimga g'azab bilan qattiq muomala qilmagan. O'z «Tuzuklarida» g'azab va qattiqqo'llik bilan qilingan muomalani tangri taoloning g'azabiga duchor bo'lish, o'z holini tang qilishdir, deb yozadi. «Shirin so'z aytib g'animni imonga kiritgin». «Til qilichdan o'tkir, bir kalima shirin so'z qilichni qinga kiritar», deydi.

Amir Temur: "Millatning ulug' martabasini, saodatini saqlamoq, uning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir" deb avlod-ajdodlarimizga vasiyat qilgan ekanlar.

Buyuk ajdodimiz Amir Temur aytganlaridek, "bir kunlik adolat - yuz kunlik toat-ibodatdan afzaldir", «Adlu ehson bilan jahon gulshani obod bo'ladi», «Adovat emas, adolat yengadi» va hokazo.

Oilada odob-axloq me'yorlari masalasiga quyidagi rivoyat keltirilgan. Aytishlaricha, Sohibqiron harbiy yurishlarning birida Eron tomonga borib Sultoniya shahri atrofida xonadonlarga lashkarlarini joylashtirib, harbiy mashqlar o'tkazib turardi. U bomdod namozidan so'ng lashkarlaridan xabar olish uchun tashqariga chiqadi. Ko'rdiki, bir ayol ko'chada ot yetaklab ketayotgan ekan. «Nechun mening saltanatimda ayollar o'z yumushlarini qilmasdan, erlar ishini bajarmoqda». Jahli chiqibdi. Ayolning qaerda yashashi, eri bor-yo'qligini aniqlash uchun navkarini yuboradi. Uning uy-joyi, eri ham borligini bilgach, erini huzuriga chorlabdi. «Nechun ayolni tahqirlab erkaklar ishini buyurursen?», debdi. "Oilamda xotinim va ikki nafar bo'yi yetgan qizim bor. Hozirda 10 chog'li askarlaringiz ham xonadonimda yashamoqda. Men qizlarim va ayolimni nomahramlar oldida qoldira olmay, majbur bo'lib otni o'tlatmoqqa buyurdim", deydi. Keyinchalik Amir Temur butun lashkarlarini yig'ib, shunday amr etibdi: «Mening arkoni davlatimda yoki harbiy yurishlarimda, qaerda bo'lishimizdan qat'i nazar, askarlar hech qachon xonadonlarga joylashtirilmasin. Ochiq yerlarda o'zlariga boshpana va o'tov tiksinar».

Amir Temurning quyidagi fikrlari ham ibratlidir: "Piru komil shayx Bahouddin Naqshbandning: «Kam yegin, kam uxla, kam gapir», degan pandu nasihatlariga amal qildim. Arkoni davlatga, barcha mulozimlarga ham aytar so'zim shu bo'ldi: «kam yenglar – ocharchilik ko'rmaysizlar, boy-badavlat yashaysizlar, kam uxlanglar – mukammallikka erishasizlar, kam gapiringlar – dono bo'lasizlar».

Sohibqironning «Temur tuzuklari»dan quyidagi satrlarni mamnuniyat bilan o'qish mumkin: «Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to'g'ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin».

«Zolimlardan mazlumlar haqqini oldim. Zolimlar yetkazgan ashyoviy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, ularni shariatga muvofiq odamlar o'rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr-zulm o'tkazmadim».

«Kimki bironing molini zo'rlik bilan tortib olgan bo'lsa, mazlumning molini zolimdan qaytarib olib, egasiga topshirsinar. Agar kimda-kim tish

sindirsa, ko'zini ko'r qilsa, quloq va burun kessa, sharob ichsa, zino qilsa, devondagi shariat qozisiga olib borib topshirsinar».

Shuningdek, ulug' bobokalonimiz Amir Temur: "Qonun hukmron bo'lgan joyda erkinlik ham bo'ladi" degan dono so'zlarni oltin harflar bilan yozib qo'yishga amr bergan edi. Shuning uchun ham qonun ustuvorligi "O'zbek modeli"da asosiy tamoyillardan biridir.

Quyidagi tuzuklarda Amir Temurning kechirimlilik xislatlari namoyon bo'lgan. Buni u boshqalardan ham talab qilgan. Kechirimli bo'lish inson uchun eng yaxshi fazilat sanaladi:

«Menga yomonlik qilib, boshim uzra shamshir ko'tarib, ishimga ko'p ziyon yetkazganlarni ham, iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim. Martabalarini oshirdim. Ular bilan muomalada shunday yo'l tutdimki, agar xotiralarida menga nisbatan shubhayu qo'rquv bo'lsa, unut bo'lardi».

«Menga hasad qilib, o'ldirishga qasd qilgan kishilarga shunchalik sovg'a-in'omlar berib, muruvvatu ehson ko'rsatdimki, bu yaxshiliklarni ko'rib, xijolat teriga g'arq bo'ldilar. Hamisha mening roziligimni olib ish tutgan do'stlarim oldimga panoh tilab kelganlarida, ularni o'zimning taxtu davlatimga sherik qilib, hech qachon ulardan mol-mulk va tirikchilik ashyolarini ayamadim».

«Hech kimdan o'ch olish payida bo'lmadim. Tuzimni totib, menga yomonlik qilganlarni parvardigori olamga topshirdim...»

«Agar dushmaning bosh urib panohingga kelsa, rahm qilib yaxshilik va muruvvat ko'rsat».

Amir Temurning do'stlik haqidagi pandu-nasihatlari ham hali-hanuz biz uchun ibratdir.

«Sodiq va vafodor do'st ulkim, o'z do'stidan ranjimaydi, do'stining dushmanini o'z dushmani deb biladi. Agar kerak bo'lsa, do'sti uchun jonini ham ayamaydi».

Amir Temurning umr bo'yi obodonchilik, qurilish ishlariga katta ahamiyat berganligi, kambag'alparvarligini uning quyidagi o'gitlaridan ham bilish mumkin:

«Kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz qursa yo biror bog' ko'kartirsa, yoxud biror xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, uchinchi yili qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig'sinlar».

«Katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxona solsinlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar...».

O'zbekiston mustaqilligi bizga buyuk sohibqironni ham qaytarib bergani bilan alohida qadrlidir.

Xorijda Amir Temur siymosi yillar davomida teatr sahnalaridan tushmay kelgan, Yevropa tillarida 500 dan ziyod, Sharq tillarida esa 900 ga yaqin kitoblar yozilgan, ko'pdan-ko'p suratlari ishlangan, qisqasi, dunyoga mashhur bo'lgan ulug' zot Amir Temur yana xalqimiz qalbidan munosib o'rin oldi.

Toshkentning markazidagi xiyobonda 1993 yil 31 avgustda sohibqironga muhtasham haykal o'rnatildi.

Mamlakatimizda 1996 yil–Amir Temur yili deb nishonlanishi unutilmas voqea bo'ldi. Amir Temurning 660 yillik yubileyi Parijda YuNESKO tashkilotida 1996 yil 24 aprelda keng ko'lamda nishonladi.

Amir Temur yubileyi munosabati bilan qurilgan inshootlardan biri Temuriylar tarixi davlat muzeyi 1996 yil 18 oktyabrda ochilgan.

Yubiley munosabati bilan ko'plab tarixiy-ilmiy asarlar, risolalar, albomlar va boshqalar nashr etildi. Shu o'rinda Amir Temurning o'zi yaratgan «Temur tuzuklari» risolasini, akademik Bo'riboy Ahmedovning «Amir Temur» tarixiy romanini, Abdulla Oripovning «Sohibqiron» she'riy dramasini, Sharafiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiylarning «Zafarnoma» asarlarini alohida qayd etish mumkin.

Yaratganga shukurlar bo'lsinkim, mustaqillikning mana shu nurafshon kunlarida yurtimiz uzra Amir Temurning ruhi bizdan rozi bo'lib kezib yuribdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

"Siyosatda maslahat, mulohazakorlik, o'ylab ish qilish qurol kuchidan ko'ra o'n baravar foydaliroqdir", degan dono so'zlar Amir Temurga mansubdir. Bu so'zlar hozirgi tilda nizoli masalalarni siyosiy muloqot, ogohlantiruvchi diplomatiya yo'li bilan hal qilishni bildiradi.

Hali telefon, telegraf, kommunikatsiya vositalari bo'lmagan bir sharoitda Amir Temur Sharqni G'arb bilan tinchlik, tijorat, elchilik yo'li vositasida birlashtirishga harakat qilgan. Bizning bugungi siyosatimiz Amir Temurning bu borada olib borgan olijanob ishlarining davomidir.

Amir Temurning quyidagi so'zlari asrlar osha xalqimizning asl farzandlarini el-yurt, Vatan haqida qayg'urishga chorlab keldi:

«Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo'ring, yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dastingiz, rahbaringiz bo'lsin». Bu jumalalarda Amir Temur ma'naviyati jamuljamdir.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temurning ma'naviy merosini hamma bilmog'i va anglamog'i lozim, bu ulug' zotdan faxrlanishimiz barchamizning burchimizdir. Ayniqsa, yoshlar ongiga adolat, vatanparvarlik, fidoyilik va sadoqat g'oyalarini singdirishda "Temur tuzuk"laridan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.